

SHAYBONIYLAR DAVRIGA OID MANBALAR TAHLILI

Fayzraxmanova Zarina Ildarovna

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13269424>

Annotatsiya: Maqolada Shayboniylar hukmronligi davriga oid turli tarixiy manbalar va ularning sharhi, shuningdek mahalliy manbalar tahlilida hukmron sulolalar, ularning nasl-nasabi, tarjimai holi, siyosiy faoliyati, diniy, ma'naviy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilishi, harbiy yurishlar ilohiy karomat va mo'jizalar orqali bayon qilishi, diniy karomatlarga ko'proq tayanishi, voqealarni ilohiy ilm va adabiyotning o'z davri darajasidan kelib chiqib, zamon talabiga mos tasnif etish usulla-ri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, Temuriylar, Bobur, Buxoro, Toshkent, XVI asr, Ubaydullaxon, Abdullaxon, Navro'z Ahmad (Baroqxon).

KIRISH

Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrdagi Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tarixchilar tomonidan alohida mavzu sifatida tadqiq etilgan emas. Ayrim tarixchi va sharqshunos olimlar o'z tadqiqotlarida mazkur mavzuga ma'lum maqsadlarda to'xtalib o'tganlar. Hozirgi kunga qadar tarixchi olimlarning bir necha avlodi ilmiy ishlariga nazar solsak, ularda shayboniylar davri davlatchilik, siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar xususida ayrim fikr va mulohazalar bildirilganligini ko'ramiz. O'zbek va rus tiliga tarjima qilingan mavzuga oid manbalarni qaysi tilda yaratilganligi va turiga qarab uch guruhga bo'lib, tahlil qilish mumkin: 1. Fors-tojik tilida yozilgan asarlar. 2. Turkiy (eski o'zbek) tilida yozilgan asarlar. 3. Sayyohlarning kundaliklari [1, B. 22].

1. Fors-tojik tilida bitilgan muhim manba, shoir va tarixnavis olim Kamol ad-Din (Sher) Ali Binoiy Ustod Muhammadxon me'mor Heraviy (1453-1512) qalamiga mansub "Shayboniynoma" asari 1505-1507-yillarda yozilgan. Binoiynoma mazkur asari Muhammad Shayboniynonning xizmatida bo'lgan paytida, xon hamda uning o'g'li nazorati ostida bitilgan. Asarda Muhammad Shayboniynonning tug'ilganidan boshlab to 1505-yilgacha, ya'ni Movarounnahr va Xorazmning bo'yundirilishiga qadar bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Binoiy shayboniylarning qal'alarni qamal qilish tadbirlari, qo'shinning moddiy ta'minoti va qo'lga tushgan o'ljalarni taqsimlash jarayoni, askarlarning jangdan bo'sh paytlardagi mashg'ulotlari, Muhammad Shayboniynonning xo'jalik tizimini tartibga solishga xizmat qiladigan turli inshootlar qurdirgani, xon huzurida uyushtiriladigan to'ylar va bazmlar, ularning o'tkazilish tartiblari xususida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan [2, B. 11].

Fazlulloh ibn Ro'zbehxon 1509-yili yozgan "Mehmonno-mayi Buxoro" asari XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda kechgan harbiy-siyosiy jarayonlar haqida. Muallif Shayboniynon hayotining oxirgi 5-6 yilida unga hamrohlik qilgan, mashvaratlar va harbiy yurishlarida ishtirok etgan hamda ko'rganlarini mazkur asariga kiritgan. "Mehmonnomayi Buxoro"da Shayboniynonning harbiy kengashlari, ularda qabul qilinadigan qarorlar va unda qatnashgan shayboniy sultonlarning ismlari keltirilishi bilan bir qatorda, muallifning o'zi guvoh bo'lgan Shayboniynon harbiy yurishlari, xususan, harbiy yurish paytida qo'shinning

ijtimoiy-iqtisodiy ta'minoti, o'ljalarni taqsimotidagi o'ziga xosliklar bayon qilingan. Bundan tashqari, shayboniy sultonlarning suyg'ol yer-mulkulariga egaligi, mulklarda istiqomat qiladigan turli o'zbek urug'lari hamda ularning harbiyga jalb qilinishi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlari keltirilgan [3, B. 34].

Tarixchi, davlat arbobi Mirzo Muhammad Haydar (1499-1551) Toshkentda tug'ilgan, uning otasi Muhammad Husayn Ko'ragon o'sha paytda Toshkent xoni bo'lgan Sulton Mahmudxon nomidan O'ratepa viloyati hokimi edi. Onasi Xub Nigorxonim esa Mo'g'ulistonning marhum xoni Yunusxonning qizi va Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning singlisi bo'lib, shu jihatdan Bobur va Mirzo Haydar qarindosh edilar. 1509-yili otasi Muhammad Husayn Shayboniynon tomonidan Xurosonda qatl etilgach, bu paytda Buxoroda bo'lgan Mirzo Haydar o'lim xataridan qochib, Badaxshon orqali Kobulga - Bobur huzuriga keladi.

Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asari Movarounnahr, xususan Toshkent va unga tutash mintaqalar tarixiga doir muhim manbalardan biridir [4, B. 243]. Manbada XVI asr boshlarida va Movarounnahr va Toshkentdagi siyosiy jarayonlar, temuriylar, shayboniylar va Toshkent hokimlari o'rtasidagi kurash, diniy-ma'naviy hayot va madaniyat sohasida yuz bergan voqealar muallifning ko'rgan-kechirganlari negizida bayon qilingan. "Tarixi Rashidiy"ning muhim jihatlaridan biri shundaki, undan temuriylarning Movarounnahrda so'nggi namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning Shayboniynon hamda shayboniy sultonlar bilan olib borgan kurashlariga doir muhim ma'lumotlar berilgan.

Tarixchi G'iyosiddin Xondamir (1473-1534)ning 1520-1524-yillarda yozilgan eng yirik asari "Habib us-siyar" XVI asrning birinchi choragida kechgan harbiy-siyosiy tarixni o'rganishda muhim manba hisoblanadi [5, B. 104]. Asar Bobur va Shayboniynon o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar va shayboniylarning jang taktikasi, ma'muriy amaldorlar hamda ularning vakolatlari, mansabdor shaxslarning faoliyati, qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan ishlar, suv inshootlarining qurilishi bilan bog'liq voqealar, soliq tizimi, tovar-pul munosabatlari haqida ko'plab ma'lumotlar shayboniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimini o'rganishda qimmatli sanaladi.

Xondamir ayrim ma'muriy mansablar – naqib, parvonachi, mushrif, otaliq, muboshir lavozimi sohiblari, ularning davlat boshqaruvidagi vazifalari xususida ma'lumotlar keltirgan. Muallif o'z asarida hukmdorlar va sarkardalar fao-liyati, ularning qarindosh-urug'chilik munosabatlari, tarixiy shaxslarning qaysi urug'ga munsubligi, shajarasining umumiy tavsifiga ko'proq e'tibor qaratgan.

Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asari [6, B. 9] O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda faktik materiallarga boyligi, tarixiy voqealarni atroflicha yoritish bilan ajralib turadi. "Abdullanoma" asosan Abdullaxon II ning tug'ilgan yili (1533–34)dan to 1588-89 yilgacha O'rta Osiyoda bo'lgan siyosiy voqealarni o'z ichiga oladi.

"Sharafnomayi shohiy"da o'zbek xonlari Turkiya o'rtasidagi munosabatlarga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Bunda turk sultoni Sulaymon I (1520 - 1566) bilan o'zbek xoni Navro'z Ahmad (Baroqxon) o'rtasida Eron shohi Tahmosp I (1524 - 1576)ga qarshi ittifoq tuzilganligi va ular Safaviylar Eroniga qarshi birgalikda kurash olib borishga ahd qilganliklari aytilgan. Turkiya 1551 - 1557-yillarda Shayboniylarning ichki kurashlariga ham faol aralashdi. Turk askarlari bu kurashda Navro'z Ahmadxon tarafida bo'ldilar. Bu haqda turk manbalarining birida ishonchli ma'lumotlar keltirilgan: XVI asrning birinchi choragida Toshkentda Navro'z Ahmad (Baroqxon) huzurida 300 turk askari xizmat qilganligi, turklar o'zbek sultonlarini miltiq va o'q-dori bilan ham ta'minlab turganligi aytilgan. Ana shu turk askarlari Baroqxon va uning o'g'illari, xususan, Bobo sulton tarafida turib Nasaf yonida Abdullaxonga qarshi janglarda qatnashdilar. Turkiya hukumati Safaviylar bilan bo'lgan urushlarda o'zbek xonlarining kuchidan foydalanish uchungina emas, balki Movarounnahrda Turkiyaning siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurashlarda faol qatnashdilar.

"Sharafnomayi shohiy"da bu kurashda Mo'g'uliston xonlari ham ishtirok etganliklari ko'rsatib o'tilgan. Ular Navro'z Ahmad (Baroqxon), uning o'g'illari va Abdullaxonga qarshi bo'lgan boshqa o'zbek sultonlarini (Sulton Sa'id, Gadoy sulton va boshqalar) qo'llab turdilar. Masalan, mo'g'ul xoni Rashidxon 1532-1570, 1556-yili Sulton Sa'idni qurollantirib, katta qo'shin bilan Abdullaxonga qarshi otlantirdi va o'sha yilning kuzida Samarqand egalladi. Rashidxon 6u bilan Movarounnahrda o'zining siyosiy mavqeiini mustahkamlamoqchi bo'lgan, albatta.

Muhammadyor ibn Arab Qatag'an qalamiga mansub "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarning egallanishi") nomli asar shayboniylar davrida Toshkentning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealari hamda harbiy jarayonlar haqida kengroq ma'lumot beradi [7, B. 430]. Asardagi voqealar 1611-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan bo'lsa-da, 1584-yilgacha bo'lgan qismi ma'lum va uning aksariyat ma'lumotlari "Abdullanoma", qolganlari "Habib us-siyar", "Mehmonnomayi Buxoro"dan olib yozilgan.

"Musaxxir al-bilod"da ham "Abdullanoma" bo'lgani singari shayboniylarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi ma'lumotlar boshqa manbalarga nisbatan anchagina. Xususan, XVI asrda Movarounnahr hududida shayboniylarning uchta mustaqil davlati – Buxoro, Samarqand, Toshkent xonliklari mavjud bo'lganligi va Toshkent hukmdorlarining ajdodlari va avlodlariga alohida-alohida to'xtalib o'tilgan, ularning matndagi shajarisi shakllantirilgan. Asarning boshqa manbalarda farqli jihati ham shundadir.

Muallif asarni, odatga ko'ra, o'z zamonasi hukmdoriga emas, balki bir necha yillar oldin vafot etgan shayboniy Abdullohxon ibn Iskandarxon xotirasiga bag'ishlagan. "Musaxxir al-bilod" o'ziga xos usulda yozilgan tarixiy asar bo'lib, undagi ma'lumotlar ayrim o'rinlarda takroriy bo'lsa-da, ularning muallif tomonidan ixcham tarzda bir yerga yig'ib berilishi, ayrim ma'lumotlarning esa bizgacha yetib kelmagan manbalardan iqtibos qilingani yoki muallifning o'zi tomonidan kiritilgani, qolaversa, bu asar qo'lyozma nusxalarining qayta-qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalishi uning o'sha davr tarixchiligi rivojiga qo'shgan hissassi va vatanimiz tarixshunosligida tutgan munosib o'rnini tutatadi.

Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniyning "Ta'rixi Abulxayrxoniy" nomli asari Abul-G'ozil Abd al-Latif Bahodirxon farmoniga muvofiq yozilgan. Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniy Abulxayrxonning o'g'li Suyunchxojaxonning kotibi bo'lgan va uning vafotidan so'ng akasi Ko'chunchixon (1512-1530) xizmatiga o'tgan. "Ta'rixi Abulxayrxoniy" asarini u Abulxayrxonning boshqa bir o'g'li 1540-1551-yillari Samarqand hokimi bo'lgan Abdullatifxon xizmatida bo'lgan paytida yozgan. "Ta'rixi Abu-l-Xayr-Xoniy"da harbiy yurishlar va urushlarda ilohiy mo'jiza sabab g'alaba qozonish va ko'p hollarda ilohiy kuch-qudratning ta'siri, shuningdek, Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda kelishi, qo'shini, sarkardalari, ularning qaysi urug'-aymoq va qavmlarga munsubligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan [8, B. 225].

Zayn ad-Din Mahmud bin Abd al-Jalil Vosifiy (1485-1551/1566)-ning "Bado' ul-vaqoe'" asarida Toshkentdagi siyosiy voqealar, adabiy muhit, xususan unda shoirlar, adiblar to'planishib mushoiralar o'tkazgan Kaykovus chorbog'i haqida qiziqarli voqealar bayon qilingan [9, B. 39]. Vosifiy 1515-yilda Toshkent viloyatidagi Farkat (Parkent) va Nomdanak qishloqlarida bo'lgan, so'ng Toshkentga kelgan va Suyunchxo'janing kichik o'g'li Baroqxon (Navro'z Ahmadxon)ga tarbiyachi qilib tayinlangan. Saroydagi ichki nizolar tufayli Vosifiy uni tashlab ketishga majbur bo'lgan va bir necha oy (1516) Toshkent mahallalaridan biridagi masjidga imomlik qilgan.

Mahmud ibn Amir Vali yozgan "Bahr ul-asror fi manoqib al-axyor" nomli kompilyativ asarining 6 tomida shayboniylar davlati, davlat boshqaruvi, mulklar va ularning taqsimlanishi, daryolar, ariqlar, sug'orish inshootlari haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, harbiy-siyosiy tizimga oid qo'shinlarning tuzilishi,

tarkibi, urug'-aymoqlar va ularning harbiy tizimdagi o'rni haqida so'z ketadi.

Abulabbos Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiyning fors tilidagi "Matlab ut-tolibin" ("Toliblar matlabi") asari [10, B. 28] XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligining siyosiy, diniy va iqtisodiy hayotida yuqori mavqega ega bo'lgan mashhur Jo'ybor shayxlari yoki xojalari xonadonining bir necha avlodi faoliyatiga bag'ishlangan. Muallif o'zi ham ushbu xonadonga mansub bo'lgani tufayli, Jo'ybor xojalarining hayot tarzi, molu mulklari, muridlari va xizmatkorlari, qurdirgan imoratlar, suv inshootlari hamda Buxoro xonlari va ba'zi xorijiy o'lkalar hukmdorlari bilan munosabatlari haqida mufassal ma'lumotlar beradi.

Xoja Ubaydulloh Ahrorning muridi va izdoshi, naqshbandiya tariqatining atqili shayxlaridan biri Mavlono Muhammad Qozi XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashagan. Uning asosiy asari mashhur "Silsilat ul-orifin"dan tashqari, davlatni boshqarish haqida yana bir risolasi [11, B. 16] "Tarixi Rashidiy" asari orqali bizgacha yetib kelgan. Risola Mirzo Muhammad Haydarga bag'ishlangan bo'lib, uning savollariga javob tariqasida yozilgan. Mavlono Muhammad Qozi shayx Xoja Ahror valiyning (1404-1490) eng yaqin muridlaridan biri va o'z navbatida Maxdumi A'zam Dahbediy nomi bilan mashhur bo'lgan shayx Ahmad Xojagiy ibn Jaloliddin Kosoniyning (1464-1542) murshidi va ustoz bo'lgan. Muhammad Qozi bir necha yil Toshkent va Buxoro shaharlarida yashagan. Vafotidan oldinroq shayboniy Sevinchixon taklifi bilan Toshkentga boradi va 1516-yili vafot etadi.

2. Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro xonligi haqida ma'lumot beruvchi turkiy tilda yozilgan tarixiy, tarixiy-geografik, badiiy asarlar jumlasiga Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", muallifi noma'lum "Tavorixi guzida" – "Nusratnoma", Abdulloh Nasrullohiyning "Zubdat ul-osor", Abu-l-G'oziy Baho-dirxonning "Shajarayi turk" asarlari kiradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida [12, B. 140] Toshkent haqida, Boburning tog'alari – Toshkent hokimlari bilan olib borgan munosabatlari batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, o'sha davrdagi qal'alarning tasvi-ri va ularning egallanish tartiblari, shuningdek, davlat mansablari, harbiy-ma'muriy lavozimlarga xos atamalar, jumladan, qal'abegi, qo'rchi, tavochi, to'ra, chog'dovul (tungi soqchi boshlig'i), bayroqdor, jibagar, ra'dandoz singari atamalar va ularning tavsifi keltirilgan.

"Tavorix-i guzida-yi nusratnoma" nomli tari-xiy asar 1502-1505-yillarda yozilgan (muallifi noma'lum). Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda mazkur asarning muallifi Muhammad Solih bo'lib, u yilnomani Muhammad Shayboniyxon topshirig'i bilan yozgan. Boshqa bir taxminga ko'ra, asar muallifi Muhammad Shayboniyxonning o'zi sanaladi. Asarning qimmatli tomoni shundaki, unda sodir bo'lgan voqealarning vaqti aniq ko'rsatilgan. Jonibek sulton va Mahmud sultonning

Shohruxiyaga yurishi hamda bosib olinishi asarda to'g'ri va to'liq yoritilgan. "Tavorix-i guzida-yi nusratnoma" asarida shayboniylarning harbiy yurishlari, mulklarning taqsimlanishi, shayboniy sultonlar, sar-kardalar va ularning ismlari birma-bir sanab o'tilib, ularning qaysi urug'ga mansubligi, harbiy o'ljalari, ularning aniq soni haqidagi qimmatli ma'lumotlar joy olgan [13, B. 135].

Muhammad Solih (1455-1535)ning "Shayboniynoma" asari nazmiy dos-ton bo'lib, unda Muhammad Shayboniyxonning 1499-1506-yillar orasidagi yurishlari, xususan, shayboniy sultonlarning Toshkentni bosib olishi, Toshkent xoni Mahmudxon va Ahmadxonlar aks ettirilgan [14, B. 200]. Dostonda siyosiy tarixning nazmga solinishi bilan bir qatorda, iqtisodiy holatlar ham yoritilgan. Xususan, soliq tizimi, pul munosabatlari, agrar munosabatlar, o'troq aholidan oshlig' (oziq-ovqat) solig'i undirilganligi, Shayboniyxonning shaharlarni qamal qilishi, qo'shinining safga tizilish tartibi, qamal qurollarining nom-lari berilgan.

Abdulloh Balxiy yoki Mavlono Abdulloh bin Muhammad bin Ali Nasrullohiy tomonidan yozilgan "Zubdat ul-osor" yilnomasi 1525-yili Suyunchxojaning o'g'li, Shohruxiya hokimi Keldi Muhammad Sultonning topshirig'i bilan yozilgan. Bu o'ziga xos jahon tarixi bo'lib, undagi voqealar 1525-yilga qadar, ya'ni Suyunchxoja-ning olamdan o'tishiga qadar davom etadi. Asarning ikkinchi qismida shayboniy sultonlar – Suyunchxo-jaxon, Ko'chkinchixon-ning harbiy yurishlari, Suyunchxojaxon va Sulton Saidxon o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar haqida birmuncha keng bayon etilgan.

Abul'ozzi Bahodirxonning "Shajarayi turk" (1664) asarida [15, B. 110] Buxoro shayboniylari – Ubaydullaxon va Abdullaxon tomonidan harbiy yurishlar va ayrim harbiy-siyosiy jarayonlar tilga olinadi. Xususan, Ubaydullaxonning Urganchni bosib olishida Toshkent hokimi Baroqxon ishtirok qilishi hamda Xorazm mulkini to'rtga bo'lgani va bir bo'lagini Toshkent to'ralaralariga bergani, Buxoro xonlarining yurishi sabablari, askarlari soni, sarkadalarining nomlari, olingan o'ljalari va xalq ustiga solingan o'lpon miqdori, qo'shinning jang taktikasi haqida ayrim ma'lumotlar mavjud.

3. Mualliflarning shaxsiy xotiralar asosida yozilgan asarlardan turk admirali va navigatori Seydi Ali Raisning "Mir'ot ul-mamolik" va boshqa elchilarning sayohatlari esdaliklarida muhim ma'lumotlar mavjud. Mazkur esdaliklarning XVII-XIX asrlarda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan elchi va sayyohlarning esdaliklari, hisobotlaridan asosiy farqli jihatini, ularning tashrifida harbiy-siyosiy maqsad bo'lmaganligida ko'rishimiz mumkin.

Seydi Ali Rais (1498-1563)ning 1557-yilda yozilgan "Mir'ot ul-mamolik" nomli asari XVI asrning o'rtalarida Turkiya, Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyo va Eron mamlakatlaridagi siyosiy vaziyatni yaxshi bilgan, davlatlar o'rtasidagi diplomatik va harbiy

munosabatlardan xabardor bo'lgan kishi tomonidan yozilgan [16, B. 97].

Seydi Ali Rais Movarounnahrga 1556-yil Baroqxon (Samarqandda – 1551-1556), Pirmuhammadxon (Balxda – 1546-1566), Burhon sultonning o'zaro kurashlari davrida kelgan va bevosita harbiy-siyosiy jarayonlarning guvo'hi bo'lgan. "Mir'ot ul-mamolik" asarida o'zi guvoh bo'lgan barcha voqealarni keltirgan bo'lib, u Movarounnahrdagi siyosiy parokandalik, xususan, Balx xoni Pirmuhammadxon, Toshkent xoni Navro'z Ahmadxon va Buxoro hokimi Burhon sultonlar o'rtasidagi siyosiy kurashni o'z ko'zi bilan ko'rgan va ularni o'z nuqtai nazaridan qalamga olgan. XVI asrning o'rtalarida Movarounnahrdagi mulklarning bo'linib ketganligi va ularning har birida qaysi sultonlar hukmronlik qilayotganligini ham tilga oladi. U shuningdek, Baroqxon qo'shini tarkibida bir qancha turk askarlari (yani-chari) bo'lganligi, Rum (usmonli turk) sultoni Baroqxonga bir qancha multiq otuvchilar va qal'a mudofaa to'plari yuborganligi, Burhon sulton qo'shini tarkibida qirqta rumlik askar borligi, ularning qanday maosh olishi, o'ljalarni taqsimlashi, jangdan bo'sh paytlarida mashg'ul bo'ladigan yumushlari kabi ma'lumotlarni bayon qilgan.

"Moskva kompaniyasi" elchisi Antoniy Jenkinson 1558-1560-yillari Buxoroga tashrif buyurgan va uning "Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat" nomli esdaliklarida xonliklar haqida ma'lumotlar mavjud [17, B. 39].

Shayboniylar davri ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar mavzusiga doir turli tarixiy manbalar va ularning sharhidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: fors-tojik tilida yozilgan mahalliy manbalar o'z maqsadiga ko'ra ko'proq hukmron sulolalar, ularning nasl-nasabi, tarjimai holi, siyosiy fao-liyati, diniy, ma'naviy jihatlari ko'proq e'tibor qaratishi, harbiy yurishlarini esa ilohiy karomat va mo'jizalar orqali bayon qilishi, diniy karomatlariga ko'proq tayanishi, voqealarni ilohiy ilm va adabiyotning o'z davri darajasidan kelib chiqib, zamon talabiga mos tasnif etish usullarini qo'llashi bilan ajralib turadi; yilnoma va manbalarda xonlarning qahramonliklari, jasorati madh etilib, ular sharafiga hamdu sano aytish bilan cheklanganlar, ayrim muayyan voqea va hodisalar esa mufassal berilmagan hamda shu sababli harbiy tizim va harbiy hayot bilan aloqador misollar bunday asarlarda kam uchraydi; manbalarda tarixiy jarayonlar talqini asar muallifining dunyoqarashi, tafakkur va idrok darajasi hamda o'sha davr diniy qarashlari bilan ham chambarchas bog'liqligini alohida ta'kidlash joiz.

ADABIYOTLAR:

- [1] Замонов А., Тўхтабеков К. Бухоро хонлигида сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар. – Тошкент: "Bayoz", 2018. –Б. 5-20.
- [2] Биноий К. Шайбонийнома // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. XVI-XIX асрлар. – Т.: – Фан ва технология, 2014. – Б. 9-11.

- [3] Фазлуллоҳ ибн Рўзбеххон. Меҳмонномаи Бухоро // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. XVI-XIX асрлар. – Т.: – Фан ва технология, 2014. – Б. 30-34.
- [4] Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 243-350.
- [5] Гиёсиддин Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – Б. 104-288.
- [6] Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарифномаи шоҳий). 1-китоб. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 7-9.
- [7] Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-биллод. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 430 б.
- [8] Тарихий манбашунослик. – Т.: "Фан", 2006. – Б. 225.
- [9] Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т.: "Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти", 1979. – Б. 39-68.
- [10] Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. – Т.: Мовароуннахр, 2016. – Б. 28.
- [11] Мавлоно Муҳаммад Қози. Хукмдорга ўғитлар. –Тошкент: "Шарқ", 1999. 16 б.
- [12] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – Б. 140-155.
- [13] Таворихи гузида – Нусратнома / Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. XVI-XIX асрлар. – Т.: Фан ва технология, 2014. – Б. 135-142.
- [14] Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 200-220.
- [15] Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. – Б. 110-115.
- [16] Сейди Али Раис. Миръот ал-мамолик. – Тошкент, 1963, 122-бет.
- [17] Женкинсон А. Россиядаги Москвадан Бақтриядаги Бухоро шаҳригача 1558 йилги саёҳат. / Рус тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Б.Аминов ва А.Замонов. Т.: Баёз, 2017. – Б. 39-43.